


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) magistratura
mutaxassisligining malaka talablari**

Toshkent - 2023



Signature

ISHLAB CHIQLIGAN:

Toshkent moliya instituti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
« 7 » _____ 08 _____ dagi 341 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2023 yil

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi..	4
1.2.1.	70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3.	70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.4.	Kvalifikatsiya.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9
	Kelishuv varag'i.....	10

1. 70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan baklavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.

70410101-Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) – “Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, u barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal etish usullari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

- davlat va mahalliy organlari, iqtisodiyot va moliya organlarida hisob yuritish va boshqaruv jarayonlari;

- iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi assotsiyalar, korporatsiyalar, konsernlar, firma, kompaniyalar, xolding,

ishlab chiqarish birlashmalarida buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etish va boshqarish jarayonlari;

- buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit ixtisosligida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlilni amalga oshirish jarayonlari.

70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar fan sohasida magistratura mutaxassisligini tamomlagandan so'ng oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislik fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bilan bog'liq kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- oliy ta'lim, o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim tizimi muassasalarida pedagogik faoliyat;
- moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyati;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati.

1.2.4. 70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:

70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalar, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;
- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatda ularni hisobga ola bilishi;
- vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, iqtisodiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalaga bilishi;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli magistratura mutaxassisligi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;
- mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tasavvur hamda e'tiqodga ega bo'lishi;

- pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;
- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- tadqiqotlar uchun ko'rsatkichlar tizimini tanlash va ularning o'zaro aloqasini modellashtirish
- mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim;

Oliy ta'lim, o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim tizimi muassasalarida pedagogik faoliyatda:

- oliy ta'lim, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;
- o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallash;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;
- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etish buxgalteriya hisobining milliy standartlari va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisob yuritishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olishi;
- mutaxassislikka oid yechilayotgan moliyaviy va boshqa ilmiy muammolar va topshiriqlarning nazariy konseptual hamda nazariy asoslarini o'rganish, ilmiy tadqiqot natijalari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish;
- yuridik shaxslarda buxgalteriya hisobini yuritishda soliq xarajatlari hisobini yuritish va prognoz qilish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilish;
- buxgalteriya hisobi tizimi barqarorligini ta'minlash va uni modernizatsiyalash orqali rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish;
- boshqaruv hisobini tashkil etish orqali xarajatlarni optimallashtirish yo'llarini topish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy holatini tahlil qilish asosida tegishli moliyaviy-boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- audit va auditorlik faoliti natijalari bo'yicha aniq choralar ishlab chiqish.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy holatini hisob-kitob va tahlil qilish

bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablari asosiy ichki hisob yuritish tizimiga oid uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish;

- hisob-kitob hujjatlarini yuritish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, buxgalteriya hisobini raqamlashtirish sohasida ratsionalizatorlik takliflar berish;
- shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;
- mutaxassislikka mos xizmatlarni ko'rsatish.

2. 70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil qila olishi;
- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha mutaxassislikka oid muammolar yechimiga qaratilgan takliflar ishlab chiqish;
- tashkilot bo'yicha moliyaviy, soliq va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- aksiyadorlik jamiyatlari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi yuridik shaxslarda MHXSning amaliy qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tashkilotda bo'yicha buxgalteriya hisobini milliy va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida yuritilishini ta'minlash;
- sohalar xususiyatini inobatga olgan holda hisob yuritish tartibini, hisob siyosatini ishlab chiqish, buxgalteriya hisobiga oid yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;
- mutaxassislikka oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy espertizadan o'tqazishni bilish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy failar – magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilga, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

Ilmiy-tadqiqot ishi – mutaxassislikka tegishli muayyn mavzuda magistrlik dissertatsiya ishini tayyorlash bo'yicha tadqiqot olib borishga qaratiladi.

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) - ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlari mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ilmiy pedagogik ish — pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

2.4. Kvalifikatsiya: Buxgalter, tadqiqotchi – pedagog.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, tavakkalchilik, raqobat, raqobatbardoshlik, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari, huquq-tartibot, ekspert xizmati, baholash, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, iqtisodiy xavfsizlik, ekspertiza, iqtisodiy jinoyatlar, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent moliya instituti

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti



Rektor

Sueef

T.Z.Teshabaev

2023 yil « »



Rektor


Sharipov

K.Sharipov

2023 yil « »

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi



Direktor

Sh.Yakubov

Sh.Yakubov

2023 yil « »

M.O'

O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy
assotsiatsiyasi



Kengash raisi

M.Tulaxodjaeva

M.Tulaxodjaeva

202 yil « »

M.O'.

O'zbekiston Auditorlar Palatasi



Kengash raisi

N.Karimov

N.Karimov

202 yil « »

M.O'.

Toshkent moliya instituti 70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura ta'lim mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent shahri

“___”_____2023 y.

Biz, quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori K.A.Sharipov, O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi Kengash raisi M.M.Tulaxodjaeva, O'zbekiston Auditorlar Palatasi Kengash raisi N.F.Karimov va Toshkent moliya instituti rektori T.Z.Teshabaev bilan birgalikda TMIda ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70410101 – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi.

Malaka talablari hamda o'quv rejaning ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohaları va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, 2018 yil 19 sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3946-son, 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4611-son Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 15 iyundagi “2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi F-31-son Farmoyishi hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori

K.Sharipov

O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar
milliy assotsiatsiyasi Kengash raisi

M.Tulaxodjaeva

O'zbekiston Auditorlar Palatasi
Kengash raisi

N.Karimov

Toshkent moliya instituti rektori

T.Teshabaev